



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SPORT JURNALISTIKASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, MUAMMO VA YECHIMLAR

Turaeva Laylo Oybekovna
O'zJOKU o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450568>

O'zbekistonda sport jurnalistikasi shakllanishi va rivojlanishi jarayonida sportga ixtisoslashgan nashrlarning o'rnini beqiyosdir. Bunday ommaviy axborot vositalari nafaqat sport sohasidagi yangiliklarni tezkor va keng qamrovli tarzda yetkazish vazifasini bajaradi, balki jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportchilarning yutuqlarini ommaga tanitish hamda milliy sport madaniyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sport jurnalistikasi orqali fuqarolarda sog'lom turmushga va jismoniy mashqlarga bo'lgan qiziqishni oshirish, shu bilan birga, sport orqali milliy g'urur va hamjamiyatchilik hissini shakllantirishga ham e'tibor qaratilgan.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari orasida sport sohasi va jismoniy tarbiyaning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ijobiy rolini yoritishga ixtisoslashgan nashrlarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ixtisoslashgan nashrlardan farqli ravishda, boshqa yo'nalishdagi gazeta va jurnallar sport mavzusiga ko'pincha ikkinchi darajali masala sifatida yondashadilar. Bu holat ularning mavzu tanlash doirasida ham aks etadi. Shu bois, kundalik hayotda sog'lom turmush tarzini ommalashtirishda sport jurnalistikasi muhim vosita hisoblanadi. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari (OAV) sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar sport jurnalistikasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, sportga ixtisoslashgan nashrlar va telekanallar tashkil etildi, internet platformalar orqali sport yangiliklari keng targ'ib qilindi.

Uff.uz, sports.uz, stadion.uz, championat.asia, tribuna.uz kabi sohaga ixtisoslashgan veb-saytlar sport yangiliklarini onlayn tarzda taqdim etish orqali keng auditoriyaga ega bo'lmoqda¹. Bu jarayonlar nafaqat axborot tarqatish, balki sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini ommaga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega. Sport jurnalistikasi nafaqat sport musobaqalarini yoritish, balki jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda barcha turdagi OAVda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida turli maqolalar, intervyular

¹ <https://sports.uz/> 15.09.2025й.



va videolavhalar e’lon qilinmoqda. Bu esa o‘z navbatida xalq orasida sportni keng targ‘ib qilish, uni ommalashtirish, 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan aholining barchasini sport bilan muntazam va tizimli shug‘ullanishlarini ta’minlash kabi dolzarb vazifani qamrab oladi. Bu kabi siyosatdan ko‘zlangan asosiy maqsad, xalq va millat genafondini saqlab qolish, aholi o‘rtasida sog‘lom hayot tarzini targ‘ib etish va shu bilan birga turli mamlakat imijini dunyoga namoyish etishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ommaviy axborot vositalari tizimida keskin islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon sport jurnalistikasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Avvalo, milliy sport turlarini targ‘ib etish va milliy o‘zlikni ifodalash masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Sport jurnalistikasi endi faqat axborot tarqatish vositasi sifatidagina emas, balki jamiyatda sog‘lom turmush tarzi, milliy g‘urur va vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirishning muhim kommunikativ instituti sifatida namoyon bo‘ldi.

Mustaqillikdan keyingi bosqichda sport jurnalistikasida quyidagi tendensiyalar kuzatildi:

1. Institutsionallashtirish jarayoni - O‘zbekistonda sport mavzusining ommaviy axborot vositalarida alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi bilan izohlanadi. Mustaqillikdan keyin sport jurnalistikasi institutsional jihatdan rivojlandi: maxsus sport nashrlari, telekanal dasturlari va radioeshittirishlar tashkil etildi. Masalan, matbuot sohasida “Erudit sport”b “Interfootball” gazetasi, internet makonida “Olamsport.com”, “Championat.asia” va “Stadion.uz” kabi sportga ixtisoslashgan axborot portallari keng ommalashdi. Televideniya “Sport” telekanalida “Sport panorama”, “Futbol olami”, “Olimpiya olami” kabi dasturlar efirga uzatila boshladi. Radio efirlarida esa “O‘zbekiston radiosi” va “Sport FM” orqali turli chempionatlar, musobaqalar hamda sportchilar haqida maxsus eshittirishlar yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, milliy sport turlarini ommalashtirish maqsadida “Kurash dunyosi”, “Milliy sport” kabi maxsus ko‘rsatuvlar tashkil etildi. Bunday institutsional rivojlanish sport jurnalistikasini ommaviy axborot vositalari tizimida mustaqil yo‘nalish sifatida mustahkamlab, uning ijtimoiy ahamiyati va kommunikativ salohiyatini oshirdi.

2. Milliy sport turlarini ommalashtirish - mustaqillikdan keyin davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, **milliy kurash** 1998 yilda O‘zbekistonning tashabbusi bilan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi (IKA) tashkil etildi² va 2018 yilda YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 2000-

² <https://kurash-ika.org/?utm> 19.09.2025ü.



yillardan boshlab har yili “Prezident sovrini uchun xalqaro kurash turniri” o‘tkazila boshlandi va bu musobaqalar OAV orqali keng yoritildi.

Belbog‘li kurash ham xalqaro maydonga chiqarilib, 2018 yilda Butunjahon belbog‘li kurash federatsiyasi tuzildi³ va o‘zbek sportchilari Jahon chempionatlarida muntazam qatnashib kelmoqda. **Ot sporti** sohasida esa 2012 yildan boshlab “Prezident kubogi” xalqaro ot sporti turniri tashkil etilib, xorijiy telekanallarda ham yoritildi. 2018 yil Toshkentda Xalqaro ot sporti federatsiyasi (FEI) bilan hamkorlikda katta musobaqa o‘tkazilib, O‘zbekiston ot sporti uchun yangi bosqichni boshladi⁴. **Tog‘ sporti** bo‘yicha 2019 yilda Chimyon va Boys‘yn tog‘larida xalqaro alpinizm festivallari tashkil etildi va ular haqida respublika telekanallari hamda internet saytlarida maxsus reportajlar berildi⁵.

Bu jarayonlar milliy sport turlarining nafaqat mahalliy ahamiyatga ega ekanini, balki ularning milliy brend sifatida xalqaro maydondagi nufuzini ko‘tarishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Masalan, 2021 yil Samarqandda o‘tgan Butunjahon kurash chempionati 50 dan ortiq davlat OAVida yoritilib, O‘zbekistonning sport va madaniy imiji targ‘ib etildi.

3. Globallashuv ta’siri – xalqaro media muhitida raqobat kuchayishi natijasida sport jurnalistikasida xalqaro standartlar, media menejment, janrlar diversifikatsiyasi kabi tushunchalar keng joriy etildi. Jumladan, xalqaro standartlar (international standards) va jurnalistik me‘yorlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘zbek sport jurnalistlari ham turli ta’lim dasturlari, konferensiyalar va seminarlarda ishtirok eta boshladilar. 2020 yil yanvar oyida YuNESKO tashabbusi bilan Toshkentda “ma’lumot jurnalistikasi” (data journalism) bo‘yicha uch kunlik trening tashkil etildi⁶ va unda ishtirok etgan jurnalistlar ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirdilar.

Shuningdek, 2022 yilda AQShning USAGM va New Media Education Center qo‘shma dasturida o‘tkazilgan “Training for Trainers” seminari orqali mahalliy jurnalistlar xalqaro o‘quv metodologiyasiga mos interfaol o‘qitish usullarini o‘zlashtirdilar⁷. Bu esa mamlakatda media ta’limi va jurnalistika amaliyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu yili TIKa va TRT hamkorligida o‘tkazilgan maxsus kurslarda esa “dijital media dizayn”, “sotsial media ko‘nikmalari” va “kontent marketingi” kabi sohalarda bilimlar berildi.

³ https://ibwa-w.com/en/?utm_19.09.2025й.

⁴ https://inside.fei.org/fei/disc/fei-world-challenge/jumping/season-2018-final?utm_18.09.2025й.

⁵ https://kun.uz/kr/23403758?utm_19.09.2025й.

⁶ https://www.unesco.org/en/articles/three-day-training-data-journalism-took-place-tashkent?utm_17.09.2025й.

⁷ https://www.usagm.gov/2022/03/15/uzbekistan-seminar-for-trainers-on-business-journalism/?utm_18.09.2025й.



Sport sohasiga oid tadbirlarda ham globallashtirish ta’siri yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, 2024 yilda Toshkentda o‘tkazilgan “Urgent Issues in the Development of Kurash Sport” xalqaro konferensiyasida nafaqat kurash sportining rivojlanishi, balki uning media muhitdagi o‘rni, milliy brend sifatida targ‘ib qilinishi va jurnalistikada yoritilishining dolzarb jihatlari muhokama qilindi⁸. Shunday qilib, global media raqobati sharoitida sport jurnalistikasida janrlar diversifikatsiyasi (diversification of genres), media menejment (media management) va xalqaro standartlarga moslashuv (adaptation to international standards) jarayonlari faol kechmoqda. Bu jarayon sport jurnalistikasini nafaqat mahalliy, balki xalqaro axborot maydonining ham faol ishtirokchisiga aylantirmoqda.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’siri-internet jurnalistikasi rivoji bilan sport jurnalistikasida onlayn translyatsiyalar, interaktiv muloqot, multimedialli kontent va sifrovizatsiya jarayonlari kuchaydi. Xususan, Telegram va YouTube platformalari orqali sport xabarlarining tezkor tarqatilishi ommalashdi. Axborot-texnologiyalarning sport jurnalistikasiga ta’siri quyidagicha namoyon bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin:

Kontent tezligi (speed of information dissemination): Internet va ijtimoiy tarmoqlar sport yangiliklari haqidagi xabarlarni real-vaqt yoki deyarli real vaqtda tarqatish imkonini beradi. Bu, masalan, o‘yin natijalari, turnirlar jadvallari, sportchilar intervyulari kabi ma’lumotlar tez yetib borishida sezilarli o‘zgarish yaratadi. **Interaktivlik va multimedia elementlari:** Video, fototasvirlar, infografika, jonli efirlar (live streams) kabi vositalar jurnalistikani bir tomonlama matn xabarlaridan chiqarib, ko‘proq ishtirokka asoslangan formatlarga o‘tkazmoqda. **Raqamli platforma va kanallar:** Telegram kanallari, YouTube videokanallari, sport saytlari (portallar) sport yangiliklari uchun asosiy manbaga aylanmoqda. Bu platformadagi auditoriya kengaygan, bu esa jurnalistikada yangi janrlar — qisqa videolar, kliplar, keys-reportajlar, “zarur video-tizimlar” kabi formatlarning ommalashishiga olib keldi. **Jurnalistikaning moslashuvchanlik qobiliyati (adaptability):** Sport jurnalistlari yangi texnologiyalarni (mobil qurilmalar, internet tezligi, striming xizmatlari) o‘zlashtirishda faol bo‘lishmoqda. Bu ularga turli formatda – podkast, blog, YouTube intervyu, Telegram chat va kanallarda muloqot qilish imkonini yaratadi.

5. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamda bir qator oliy ta’lim muassasalarida

⁸https://yuz.uz/en/news/v-tashkente-otkrlas-mejdunarodnaya-konferentsiya-po-aktualnm-voprosam-razvitiya-kurasha?utm_17.09.2025j.



sport jurnalistikasi yo‘nalishlari tashkil etildi. Bu jarayon sohaning professionallashuvi va ixtisoslashuviga zamin yaratdi⁹.

2010 yildan keyin sport jurnalistikasining ijobiy va salbiy jihatlaridagi dinamikasi quyidagicha:

Ijobiy jihatlar

Raqamli rivojlanish - internet portallari va mobil ilovalar orqali sport xabarlarini tez va qulay olish imkoniyati yaratildi (masalan, *championat.asia*, *sports.uz*). **Ijtimoiy tarmoqlar ta’siri** - Telegram, YouTube va Instagram orqali sport yangiliklari tezkor tarqatilib, auditoriya bilan interaktiv muloqot kuchaydi. **Janrlar diversifikatsiyasi** - video-tahlil, podkast, infografika va data-jurnalistika kabi zamonaviy formatlar ommalashdi. **Xalqaro integratsiya** - o‘zbek sport jurnalistlari xalqaro konferensiyalar va treninglarda qatnashib, zamonaviy standartlarni o‘zlashtira boshladilar. **Ommaviylik va ochiqlik** - sport mavzusi keng jamoatchilikka yaqinlashdi, blogerlar va muxlislar ham axborot tarqatish jarayonining bir qismiga aylandi.

Salbiy jihatlar

Bosma nashrlarning tanazzuli - ko‘plab an’anaviy sport gazetalarini faoliyatini to‘xtatdi yoki faqat onlayn rejimga o‘tdi, bu esa media xilma-xilligini qisqartirdi. **Sifat muammosi** - ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlikka intilish ba’zi hollarda faktcheking va professional tahlildan ko‘ra sensatsiyaga yo‘l ochdi. **Tijoratlashuv ta’siri** - sport media bozorida reklama va reyting gonkasi kuchayib, ayrim hollarda axborotning xolisligiga ta’sir ko‘rsatdi. **Mutasaddi kadrlar yetishmasligi** - raqamli texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan sport jurnalistlari soni kam bo‘lib, ko‘pchilik hali ham an’anaviy uslubga tayanadi. **Internetga bog‘liqlik** - onlayn platformalarning ustunligi sabab, internet qamrovi cheklangan hududlarda sport axborotiga kirish imkoniyati muammoligicha qolmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillikdan keyingi davrda sport jurnalistikasidagi ixtisoslashgan nashrlar institutsionallashuv, janrlar diversifikatsiyasi, multimedia platformalari integratsiyasi kabi jarayonlar orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, mustaqil sport gazetalarini, elektron jurnallar va internet portallari orqali milliy sport turlarining keng yoritilishi hamda ularning xalqaro maydonda targ‘ibi uchun zamin yaratildi.

⁹ https://uz24.uz/uz/articles/uzjoku_qabul_2021?utm_19.09.2025j.